



## Mahmud Qo'shg'ariyning "Devonu Lug'otit Turk" Asaridagi Maqol Va Matallar Tarkibida Kelgan Ayrim Zoonimlarning Grammatik Va Semantik Tahlili

Jafarov Botir Sattarovich, Namangan davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori  
Sobitov A'zamxon Tursunpo'lot o'g'li, Namangan davlat universiteti o'qituvchisi

### ABSTRACT

mazkur maqolada zoonim leksik qatlaming onamsatikada tutgan o'rni va ahamiyati, ularning qadimgi turkiy tillardagi taraqqiyoti, xususan Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" qo'lyozmasida uchraydigan maqol, masal va boshqa adabiy janrlar tarkibida kelgan ayrim zoonimlarning grammatik yasalishi va semantik tahlili haqida so'z yuritiladi.

в данной статье говорится о роль и значение зоонимного лексического пласта в онамсатике, их развитие в древнетюркских языках, в частности, некоторые зоонимы, встречающиеся в пословицах, притча и других литературных жанрах, встречающиеся в рукописи Махмуда Кашигари «Диван лугат ат-турк» обсуждаются грамматическая конструкция и семантический анализ.

In this article, it is said that the role and importance of the zoonum lexical layer in onomastics, their development in ancient Turkic languages, in particular, some zoonyms found in proverbs, parable and other literary genres found in Mahmud Kashgari's manuscript "Devonu lug'otit turk" , their grammatical construction and semantic analysis are discussed.

### ARTICLE INFO

Received: 11<sup>th</sup> September 2024

Accepted: 10<sup>th</sup> October 2024

### KEY WORDS:

onomastika, zoonimiya, semantik taraqqiyot, ornitonim, jonli material, anatomik atamalar, struktur-grammatik, leksik qatlam, onomiya, eksperimental hayvonlar ономастика, зоонимия, семантическое развитие, орнитоним, живой материал, анатомические термины, структурно-грамматический, лексический пласт, ономия, подопытные животные. onomastics, zoonymy, semantic development, ornithonym, living material, anatomical terms, structural-grammatical, lexical layer, onomy, experimental animals

### KIRISH

Qardosh turkiy tillarning tarixiy leksikasini har tomonlama chiqur hamda ilmiy asoslangan holda tadqiq qilish hozirgi kunda tilshunoslikda va tarjimashunoslikda amalga oshirilishi zarur bo'lgan muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, qadimgi turkiy tillar tarixiga oid zoonimlar bilan bog'liq terminlar ham chiqur o'rganishni talab qilgan leksik qatlamlar sirasiga kiradi.

Zoonimlar onomastikaning kam o'rganilgan qatlami bo'lib, tadqiqotchilar tomonindan buni zoonimlarning rasmiy hujjatlarda kamdan-kam qayd etilishi bilan bog'laydilar. Dastlab onomastika

terminiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, mazkur termin (yunoncha: onomastikos so'zidan olingen bo'lib, ismga bog'liq ot, ism kabi ma'nolarni anglatadi) tilshunoslikda otlar, ularning tarixi, tilda qo'llanilishini o'rganadi. Onomiya turli xos nomlarga, jumladan: antroponiya, toponimika, etnonimiya, zoonimiya va boshqa bir qancha turlarni o'z ichiga olib, Osiyo xalqlarining oldingi joylashuvi, migratsiyalari, til va madaniy aloqalari, tillarning qadimgi holatini bilishga yordam beradi. Xalq og'zaki ijodida, ayniqsa, turli qo'lyozmalarda va dostonlarda aholining orzu-istiklari, maqsad-muddaolari, kasb-hunarlari, atrof-muhitga bo'kgan qarashlar, qo'shni xalqlari bilan munosabati va boshqa harakatlari atroflicha bayon etilgan<sup>1</sup>.

## METODOLOGIYA

Yuqorida aytib o'tilganidek, zoonimiya – onomastikaning kam o'rganilgan qatlami bo'lib, mazkur terminga tadqiqotchilar tomonidan turlicha fikrlar bildiriladi. Zoonim (qadimgi yunonchadan – zoo “hayvon”, onomo “ism, nom” ya’ni hayvon nomi degan ma’noni bildirib, hayvonot bog’ida saqlanadigan yovvoyi yoki uy hayvonlarining yoki sirkda ishlaydigan eksperimental hayvonlarning nomlari ma’nolarini beradi<sup>2</sup>.

Zoonimlarning o'ziga xos xususiyati borasida Dmitreva shunday yozadi: “zoonimlarning o'ziga xos xususiyatlariga ularning ko'proq antroponimlar yoki boshqa onomastik sinflarga mansub so'zlarning kirib borishi uchun “ochiq”ligi va xorijiy tillarning ta'siriga moyillgi, shuningdek, boshqa tegishli nomlar sinflariga nisbatan kamroq normallashishi kiradi”<sup>2</sup>. B.Abdushukurov o'zining doktorlik ishida: zoonimlarning semantik taraqqiyotini, XI-XIV asr Movorounnahr, Dashti Qipchoq va Misr mamlakatlari yozma yodgorliklari, jumladan Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” va boshqa bir qancha asarlarda to'plangan zoonimlarga oid barcha materiallarni tarixiy aspektida qiyosiy tahlil qilish asosida o'rganadi. Sinxron uslub yordamida, tadqiqot obyekti qilib olingen terminlar tizimi hozirgi zamon adabiy tillari va ayrim o'rnlarda o'zbek tili shevalari materiallariga muqoyosa qilib, zoonimlarda kechgan fonetik va semantik o'zgarishlar hamda mazkur terminlarning qo'llanilishi xususida tegishli hulosalar chiqarildi<sup>3</sup>.

XI asrda bir shahar bilan ikkinchi shahar xalqlari, bir qabila bilan boshqa bir qabila a'zolari o'rtasida aloqa va munosabatlar kuchaydi, lekin tilda xilma-xillik hukmron edi. Ana shu tilda mavjud bo'lган xilma-xilliklarga barham berish, ma'lum normalar yaratish kabi ulug' va g'oyat sharafli ishga ehtiyoj tug'iladi. Shu talabga javoban Mahmud Qoshg'ariy o'zining “Devonu lug'otit turk” asarini yozdi<sup>4</sup>.

Qadimgi turkiy xalqlarda zoonimlarning tadqiq etilishi tarixi bevosita Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asariga borib taqaladi. Mazkur asar turkiy xalqlarning noyob durdonasi bo'lib, qo'lyozmada xalq og'zaki ijodiga doir 300 dan ortiq she'riy parchalar, 291 ta maqol va matal keltirilgan. Ushbu matnlar tarkibida 200 ga yaqin hayvon nomlari, shu jumladan 100 ga yaqin qush nomi (ornitonim) uchraydi.

Bundan tashqari, hayvonot va o'simliklari, ularning nomlanishiga alohida to'xtalib o'tiladi. Tilshunos olim Viktor Ivanovich Belyayev mazkur nodir qo'lyozma haqida shunday yozadi: “Biz bu asarga nihoyatda yuksak baho berishimiz kerak, chunki u kitoblardan olib yozilmagan, balki jonli materialni

<sup>1</sup> “Manas” ensiklopediyasi / Davlat tili va ensiklopediyasi markazi. Bishkek: Qirg'iz ensiklopediyasi bosh tahriri, - 1995. 1-jild. – 440 b. ISBN – 5-89750-013-4

<sup>2</sup> Дмитриева, Людмила Ивановна. Зоонимы Тамбовской области: к проблеме номинации // VII Державинские чтения: филология и журналистика. — Тамбов, 2002. — С. 77<sup>2</sup>

<sup>3</sup> Abdushukurov. B. B. “XI-XIV asr Turkiy yozma manbalar tilidagi zoonimlar”, Filologiya fanlari nomzod...diss. – Toshkent, 1998. – 8-9 bb.

<sup>4</sup> Mutallibov. S, (tarjimon va nashrqa tayyorlovchi) Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug'otit turk”, O'z SSR Fanlar akademiyasi, A.S. Pushkin nomidagi til va adabiyot instituti va Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik. Fanlar akademiyasi instituti nashriyotining bosmaxonasi, I-jild, №: 81. Toshkent. 1960, 14-15 bb.

shaxsan kuztатishга асосланган. Muallif bergen ma'lumotlar...археологик кашфийотлар бу ма'lumotlarning аksariyatini isbot etmoqda”<sup>5</sup>.

## TAHLIL

“Devonu lug'otit turk” асарида bir qancha tarbiyaviy, madabiy-ma'rifiy аhamiyatga ega adabiy matnlar, jumladan: she'riy parchalar, maqollar, matal va masallar kelgan bo'lib, ushbu matnlardagi zoonimlar lингвистик (grammatik va semantik) jihatdan tahlil qilindi.

**Акъз** – (ho'kiz) bu grammatik jihatdan ot so'z түркменигі mansub tub so'z bo'lib, shu maqolda ham kelgan: **өкүз азакі болғынча, бузагу баші болса жік** - ho'kizning oyog'i bo'lguncha, buzoqning boshi bo'lgan yaxshiroq. Bu maqol mustaqillik – bo'y sunishdan yaxshi degan ma'noda qo'llaniladi. (MQ 1960, I, 91)

**Атаң** – axta qilingan tuya ma'nosini berib, grammatik jihatdan ot so'z түркменигі mansub tub so'z, shu maqolda ham kelgan: **атаң жұки аи болса, ачқа аз көрүнүр** – атан ning yuki oziq-ovqat bo'lsa ham och odamga oz ko'rindi. (MQ 1960, I, 105)

**Эркәч** – taka, erkak echki ma'nosida kelgan bu so'z grammatik jihatdan ot so'z түркменигі mansub tub so'z bo'lib, maqolda shunday kelgan:

**Әркәч әті әм болур, әчкү әті жіл болур** – taka go'shti davo bo'ladi, urg'ochki echki eti yel bo'ladi. Ya'ni erkak echki go'shti davo bo'ladi, urg'ochki echki go'shti qorinni dam qiladi. (MQ 1960, I, 120)

**Ордәк** – o'rdak ma'nosini berib, grammatik jihatdan ot so'z түркменигі mansub tub so'z hisoblanadi va maqolda shunday kelgan:

**Каз қонса, ордәк көлиг** - “g'oz qo'zg'alsa, o'rdak ko'lni egallaydi” (MQ 1960, I, 128)

**Кекүн** – көгäкүн – ko'k pashsha, mol pashshasi (so'na). maqolda shunday kelgan: **иккі бүгра ікәшиүр öтпә** **көгäкүн жанчилур** – ma'nosı: ikki ayg'ir olishadi va tishlashadi. Oralarida so'na halok bo'ladi. Bu maqol ikki botir urushib, orada kuchsizlar halok bo'lishiga ishora qilib aytildi. (MQ 1960, II, 332)<sup>6</sup>.

**Сөмүркүк** – сёмуркүк – bulbulga o'xshash bir qush. Baloso'g'unlar so'zi. Matnda shunday keladi: **Буң-буң** **öтәр сәмүркүк , Бөгзі учун манланур** ya'ni yoqimli sayrog'i bilan kishini shodlantiradigan qush och qolsa, don deb tuzoqqa ilinadi. (MQ 1960, II, 335)<sup>7</sup>.

**Тілкү** – tulki ma'nosini bildiruvchi bu so'z grammatik jihatdan ot so'z түркменигі mansub tub so'z bo'lib, masalda shunday: **тілкү өз жінігә ўрса ўзүз болур** – tulki o'z inidan nolisa, unga nomus bo'ladi. (MQ 1960, III, 11)

**Јарбуз** – ilonni o'ldiradigan bir hayvon, bu so'z grammatik jihatdan ot so'z түркменигі mansub tub so'z bo'lib, maqolda shunday keladi: **јілан жарбуздін қачар, қанча барса жарбуз отру көлүр** – ilon doim yarbuzdan qochadi. Ilon qayoqqa qochsa, u qarshisidan chiqadi. Bu maqol: yomon ko'rgan narsasidan qochsa qutulmay, unga duch keladigan odam haqida aytildi. (MQ 1960, III, 46)

**Оғлақ** – echki. Misolda shunday keladi: **оғлан иші үш болмас, оғлақ мұнұзи сап болмас** ya'ni bolalar ishini ish deb bo'lmaydi, echki shoxi yaxshi sop bo'lmaydi. Hozirgi “yosh bolani ishga buyur, orgasidan o'zing yugur” maqoliga o'xshash ma'no kasb etadi. (MQ 1960, III, 159)

**Тайған** – chopqir, tozi it. Maqolda shunday keladi: **тајған жүгрүгін тілкү сәшмәс** ya'ni tulki yuguruk tozini yaxshi ko'rmaydi. Bu maqol o'zini katta olib, husumat qiladigan ikki olimga tegizib aytildi. (MQ 1960, III, 190)

<sup>5</sup> O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, Ozbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, birinchi jild. Toshkent, 2002-yil.

<sup>6</sup> Mutallibov. S, (*tarjimon va nashrga tayyorlovchi*) Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug'otit turk”, O'z SSR Fanlar akademiyasi, A.S. Pushkin nomidagi til va adabiyot instituti va Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik. Fanlar akademiyasi instituti nashriyotining bosmaxonasi, II-tom, №: 81. Toshkent. 1963, 332, 335- bb.

<sup>7</sup> Mutallibov. S, (*tarjimon va nashrga tayyorlovchi*) Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug'otit turk”, O'z SSR Fanlar akademiyasi, A.S. Pushkin nomidagi til va adabiyot instituti va Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik. Fanlar akademiyasi instituti nashriyotining bosmaxonasi, II-tom, №: 81. Toshkent. 1963, 310, 378- bb.

سندىجى سانдувач – bulbul m'anosini berib, gramatik jihatdan ot so'z turkumiga mansub tub so'z . She'rda shunday keladi:

**Сәндиән қачар сунділач, Мәндә тиңар қарғилач.**

**Татліг өтәр сандувач, Эркәк тиши учрушуур.** ya'ni yoz bilan qish tortishuvni ta'riflab, shunday deydi: sa'va sendan ochadi. Qaldırıg'och va boshqa qushlar menda bo'ladi. Menda bulbul yoqimli sayrashi bilan odamlarni shodlantiradi. Butun yoz erkak va urg'ochi qushlar juft-juft bo'lib qo'shilishadi. (MQ 1960, III, 193)<sup>8</sup>.

بۇرى بۇرى – bo'ri. Gramatik jihatdan ot so'z turkumiga mansub tub so'z bo'lib, she'rda shunday keladi:

**Күчә түрүп жориә ёрдім, қара, қүзіл бўри көрдўм.**

**қатиғ жаңи қура көрдўм, қая көрүп бақу ағді.** ya'ni kechasi turib kezar edim. Qora, qizil bo'rilarini ko'rib qoldim. Kuchli, qattiq yoyimni otishga hozirlandim. Bo'rilar menga qarashdi, meni ko'rish bilan orqasiga, yuqorilarga ko'tarildi. (MQ 1960, III, 239)

بۇرى بۇرى – chiyabo'ri ma'nosini ham beradi va gramatik jihatdan ot so'z turkumiga mansub tub so'z hisoblanib, maqolda shunday kelgan: **бўри қошиңисин јэмас** – chiyabo'ri qo'shnichilik haqiga rioya qilib, qo'shnisini yemaydi. Bu maqol qo'shnichilik hurmatiga rioya qilishi zarur bo'lgan kishilarga undab aytlishi bilan didaktiham ahamiyat kasb etgan. (MQ 1960, III, 239)

چازان – chayon, gramatik jihatdan ot so'z turkumiga mansub tub so'z hisoblanib, she'riy matnda shunday kelgan:

**Сәндиә қопар ҹазанлар, Кузгу сінәк јіланлар.**

**Дүк мін қују түмәнлар, Кузрук тікіб жүгрүшүр.** ya'ni qish bilan yoz tortishuvini ta'riflab, qish yozga aytadi: senda chayonlar, pashsha, chivinlar, xalqqa ozor beruvchi xar xil hasharotlar bor. Senda ilonlar dumlarini o'rab (gajjak qilib) xalqqa hamla qiladilar. (MQ 1960, III, 378)

## HULOSA

Hulosa o'rnida shuni aytish joizki, zoonimlar bu ...qo'lyozmalar, bitiklar tarkibida kelgan shunchaki lu'gatlar yig'indisi emas. Ular ma'lum bir hayvon nomini ifodalashi bilan birga, o'sha davr hayoti, tili va adabiyoti, madaniyati, milliy qadriyatları, muhiti, xalq turmush tarzi, dunyoqarashi, va tuzumidan darak beradi. Turkiy xalqlarning hayat tarzi, turmushi, yaxshi-yomon xulq-atvorlari qiyoslash, o'xshatish, maqol, masallar va she'riy parchalarda hayvonlar obrazi orqali ifodalab berilgan. Zoonimlar uchraydigan matn tahliliga bag'ishlangan jahon va o'zbek tilshunosligidagi tadqiqotlar orqali tarixiy, leksik-semantik, didaktik ahamiyatga ega bo'lgan hayvon nomlarini, ularning semantik xususiyatlari chuqur o'rganilmoqda. Misol tariqasida: qo'lyozmadagi maqol tarkibida kelgan "chiyabo'ri" – qo'shnichilik haqiga rioya qilib, qo'shnisini yemaydi (ozor bermaydi) ya'ni qo'shnichilik hurmatiga rioya qilishi zarur bo'lgan kishilarga undab aytlishi bu bevosita tarbiyaviy ahamiyatga ega. Shunga o'xshash 100 dan ortiq misollarni keltirish mumkin. Mazkur maqola orqali ushbu mavzuning kichik bir qismini imkon qadar kengroq yoritib berishga harakat qilindi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

### RO'YXATI

1. "Manas" ensiklopediyasi / Davlat tili va ensiklopediyasi markazi. Bishkek: Qirg'iz ensiklopediyasi bosh tahririysi, - 1995. 1-jild. – 440 b. ISBN – 5-89750-013-4
2. Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии / Отв. ред. А. В. Суперанская; Рец.: Х. Ф. Исхакова; Институт языкоznания АН СССР. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: Наука, 1988. — 192 с. — 23 000 экз. — ISBN 5-256-00317-8
3. Дмитриева, Людмила Ивановна. Зоонимы Тамбовской области: к проблеме номинации // VII Державинские чтения: филология и журналистика. — Тамбов, 2002. — С. 77

<sup>8</sup> Mutallibov. S, (*tarjimon va nashrga tayyorlovchi*) Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", O'z SSR Fanlar akademiyasi, A.S. Pushkin nomidagi til va adabiyot instituti va Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik. Fanlar akademiyasi instituti nashriyotining bosmaxonasi, III-tom, №: 81. Toshkent. 1963, 11, 46, 159, 190, 193, 239, 378- bb.

4. Abdushukurov. B. B. “XI-XIV asr Turkiy yozma manbalar tilidagi zoonimlar”, Filologiya fanlari nomzod...diss. –Toshkent, 1998. – 8-9 bb.
5. Mutallibov. S, (*tarjimon va nashrga tayyorlovchi*) Mahmud Qoshg’ariyning “Devonu lug’otit turk”, O’z SSR Fanlar akademiyasi, A.S. Pushkin nomidagi til va adabiyot instituti va Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik. Fanlar akademiyasi instituti nashriyotining bosmaxonasi, I-jild, №: 81. Toshkent. 1960, 91, 105, 120, 128- bb.
6. O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, Ozbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, birinchi jild. Toshkent, 2002-yil.
7. Mutallibov. S, (*tarjimon va nashrga tayyorlovchi*) Mahmud Qoshg’ariyning “Devonu lug’otit turk”, O’z SSR Fanlar akademiyasi, A.S. Pushkin nomidagi til va adabiyot instituti va Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik. Fanlar akademiyasi instituti nashriyotining bosmaxonasi, II-tom, №: 81. Toshkent. 1963, 332, 335- bb.
8. Mutallibov. S, (*tarjimon va nashrga tayyorlovchi*) Mahmud Qoshg’ariyning “Devonu lug’otit turk”, O’z SSR Fanlar akademiyasi, A.S. Pushkin nomidagi til va adabiyot instituti va Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik. Fanlar akademiyasi instituti nashriyotining bosmaxonasi, III-tom, №: 81. Toshkent. 1963, 11, 46, 159, 190, 193, 239, 378- bb.
9. Mayor. M, Chris. F & Combley. R (2009) “The Longman Dictionary of Contemporary English”, Pearson Educational Limited, fifth edition. UK. ISBN 9781408215333

**Internet manbalar:**

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/mahmud-qoshg-ariyning-devoni-lug-atit-turk-asarida-so-z-yasalishi-viewer>
2. <https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/article/view/675>
3. <https://researchedu.org/index.php/iclt/article/view/2734/3223>
4. [https://uz.wikipedia.org/wiki/BBzbek\\_tilining\\_etimologik\\_lugCABBati](https://uz.wikipedia.org/wiki/BBzbek_tilining_etimologik_lugCABBati)
5. [electronizohlilug'at.uz](http://electronizohlilug'at.uz)
6. <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/mahmud-koshgariy-va-uning-devoni-lugatit-turk-asari-videogars-devoni-lugatit-turk-3-jildlik.html>